



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

FILOLOGIK TADQIQOTLARNING YANGI BOSQICI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2025-yil, 21-OKTABR

BUXORO – 2025

ANJUMAN DASTURIY QO'MITASI

- | | |
|--------------------|--|
| 1. B.B. Ma'murov | - Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais; |
| 2. Z.M. Muqimov | - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini; |
| 3. G.R. Akramova | - Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo; |
| 4. X.A. Xaitov | - Tillar fakulteti dekani, a'zo; |
| 6. U.S.Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, a'zo; |
| 7. D.B.Axmedova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini professori, a'zo; |
| 8. G.B.Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 9. G.R.Mirxanova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 10. R.A.Saidova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini professori, a'zo; |
| 11. Y.U.Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 12. Sh.Sh.Nizomova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 13. N.H.Hojiyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 14. M.U.Usmonova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. N.A.Bafoyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. N.O. Avazova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi, a'zo; |
| 17. S.T. Latipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi, a'zo |

ILMIY ANJUMANNING TASHKILIIY QO'MITASI

- | | |
|--------------------|---|
| 1. M.M. Bafayev | - O'quv ishlari bo'yicha prorektor, rais; |
| 2. M.L. Umedjanova | - Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais muovini; |
| 3. U.S. Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, a'zo; |
| 4. F.R.Rustamov | Tillar fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari |
| 5. L.F. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini professori, a'zo; |
| 6. M.Y. Ro'ziyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini professori, a'zo; |
| 7. Sh.M. Istamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 8. M.B. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 9. G.B. Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 10. R.R. Xalilova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 11. M.U. Usmonova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 12. F.K. Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 13. N.N. Mirjonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi, a'zo; |
| 14. M.Y. Latifova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. M.A. Tilavova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. M.V. Jabborova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi, a'zo. |

To'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda "2025-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 496-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Buxoro davlat pedagogika institutida o'tkazilgan "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas'ul muharrir:

G.B. Rustamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

D.S. O'rayeva - filologiya fanlari doktori, professor
F.S. Safarova - filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

O'ZBEK YOZMA YODGORLIKLARIDA VA ADABIY MATNLARDA KOSMONIMLARNING LISONIY TIZIMI VA POETIK FUNKSIYASI

Jabborova Malohat

BuxDPI O'zbek tili va kafedrası adabiyoti o'qituvchisi

BuxDU mustaqil izlanuvchisi

jabborovamalohat@buxdpi.uz

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot ishida samoviy jismlarning genetik tavsifi, inson ruhiyati, uning koinot va olam bilan mushtarakligi ilmiy tahlilga tortiladi, fazoviy timsollarning maishiy turmush, dala yumushlaridagi ahamiyati izohlanadi, kishi botinidagi salbiy qusurlarni bartaraf etishga qaratilgan obrazli tasvirlar qalamga olinadi. Mavzu mohiyatini yoritishda "Avesto" va Navoiy asarlariga murojaat qilinadi.

Kalit so'zlar: Ulkar, Surayyo, Paruy, Ardvisura, Anaxita, Nohid, samoviy atribut, Oltin qoziq, Hulkar, Xurshid, tabuzug', antropomorf.

Аннотация. В данной исследовательской работе научно анализируется генетическое описание небесных тел, психики человека, её связь со Вселенной и миром, объясняется значение пространственных символов в повседневной жизни и полевых работах, приводятся образные образы для устранения негативных пороков в душе человека. Для пояснения сути темы обращаются к произведениям «Авесты» и Навои.

Ключевые слова: Улкар, Сурайё, Паруй, Ардвисура, Анахита, Нохид, небесный атрибут, Золотой свайп, Хулкар, Хуршид, табузуг, антропоморф.

Abstract. In this research work, the genetic description of celestial bodies, the human psyche, its connection with the universe and the world are scientifically analyzed, the importance of spatial symbols in everyday life and field work is explained, figurative images are drawn to eliminate negative defects in a person's soul. In order to clarify the essence of the topic, the works of "Avesta" and Navoi are referred to.

Keywords: Ulkar, Surayyo, Paruy, Ardvisura, Anakhita, Nohid, celestial attribute, Golden pile, Hulkar, Khurshid, tabuzug', anthropomorph.

O'zbek tili yozma yodgorliklarga boy til bo'lib, tarixiy taraqqiyotining turli davrlarida yaratilgan yozma manbalarda kosmonimlarga doir materiallar ham juda ko'p. Bir guruh o'zbek nomshunoslari ta'kidlaganlaridek: «...o'zbek tili tarixida mavjud bo'lgan va ko'plab tarixiy yozma yodgorliklar hamda tarixiy asarlar tilida saqlanib turgan son-sanoqsiz atoqli otlar, ularning paydo bo'lishi, yasalishi va shakllanishi, ma'no va vazifaviy xususiyatlari, boshqa xil lisoniy hamda tarixiy-madaniy, ma'rifiy tomonlari fan uchun qorong'uligicha qolmoqda». Bu fikr o'zbek tili kosmonimlari uchun ham tegishlidir.

Kosmik tadqiqotlarning rivojlanishi natijasida yuzlab kosmik obyektlar nomi paydo bo'ldi. Bu nomlar qaysi tilga mansub bo'lishidan qat'i nazar, o'zbek tili leksikasidan mustahkam joy olib, hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanilmoqda. Tilimizda qadimdan qo'llanib kelaётган kosmonimlar va yangi hosil bo'lgan kosmonimlarning lisoniy xususiyatlarini kengroq yoritish zarurati ularga diaxron va sinxron jihatdan yondashishni taqozo qiladi. Bu fikr o'zbek tili kosmonimlari uchun ham tegishlidir. Kosmik tadqiqotlarning rivojlanishi natijasida yuzlab kosmik ob'ektlar nomi paydo bo'ldi. Bu nomlar qaysi tilga mansub bo'lishidan qat'i nazar, o'zbek tili leksikasidan mustahkam joy olib, hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanilmoqda.

Tilimizda qadimdan qo'llanib kelayotgan kosmonimlar va yangi hosil bo'lgan kosmonimlarning lisoniy xususiyatlarini kengroq yoritish zarurati ularga diaxron va sinxron jihatdan ёndashishni taqozo qiladi. Quyidagi ilmiy manbalarda kosmonimlar masalasiga to'xtalib o'tiladi. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida Erantuz(Yupiter), Baqir soqum (Mars), Temur qazunuq(Qutb yulduzi), Yetikan (Yetti qaroqchi yulduzi),

Ulkar(Surayyo yulduz turkumi, Hulkar), Qoraqush(Yupiter), Yer(Yer planetasi), Ay(Oy) kabi kosmonimlarga izoh berilgan. Navoiy asarlari tili leksikasini o'rgangan Bafayevning ma'lumot berishicha, osmon jismlari va ular bilan bog'liq bo'lgan hodisalar, predmet nomlari Alisher Navoiy asarlarida oltmishdan ortiq so'zlar ifoda etilgan .

Xalq kosmonimlari xalq tomonidan nomlangani sababli til tabiatiga muvofiq ularda fonetik o'zgarishlar bo'lishi, shuningdek turli davrlarda aynan bir obyektning o'zi turlicha nomlar bilan atalishi yoki aynan ma'lum obyekt bir tilning sheva va lahjalarida bir-biridan farqli nomlar yoki sinonimik qatorga ega bo'lishi ko'plab kuzatiladi. Masalan, Mars sayyorasini hozirgacha yetti nom bilan atalganini ta'kidlashgan: Baqir so'qum (Baqir so'qum//Baqir so'qin) – Baqir so'qra yulduz- Angarak (Turfon matnlarda) –yulduz-Mirrix-Bahrom-Qizil-Mars .

Husn bozorida men bo'ldim ul oyg'a mushtariy,

Kim muqarrar aylagay oyo mohi tobong'a narx .

Baytda mushtariy so'zining ko'p ma'noliligi asosida iyhom san'ati, ya'ni bir o'rinda xaridor, bir o'rinda planeta, Oy, Moh, Mushtariy kosmonimlari qo'llash orqali esa tanosub san'ati yuzaga kelgan. Parvin yulduzi "Avesto"da "Tir yasht"ning 12-bandida Paoryavini ko'plik shaklida qo'llangan, pahlaviyda Parviz, forsiyda Parvin, so'g'd tilida Paruy yoki Parvay, arabiyda Surayyo yulduz turkumi fransuz tilida Pleyadir. Parvin "Avesto"da boshqa yulduzlar qatori ulug'lanadi.

Hamul hayli Parvin o'zin ko'rguza,

Taloya kibi chiqti gardun uza .

Surayyo bir-biriga yaqin joylashgan oltita yulduzdir. Surayyo "boylik" ma'nosida saro so'zining kichraytirish shaklidan olingan. Tadqiqotchilarning fikricha, Surayyoni saro, ya'ni kichraytirish shaklida ishlatilishi unga nisbatan ehtirom ifodasidir. Iqdi so'zi eski o'zbek tilida, ba'zan Navoiy asarlarida Surayyo yulduzi ma'nosini ifodalagan. "Avesto"da tabiatni yashartiruvchi, suvga, yerga va ayollarga homiylik qiluvchi ma'buda Ardisura Anaxita nomi bilan bog'liq. "Avesto"ning 5-yashtida Anaxita yulduzi sifatida qayd qilinadi. Birinchi qism Ardi-"nam", "bug", ikkinchi qismi sura-"qudratli" ma'nosida, uchinchi qismi anaxita-"pokiza", "g'uborsiz", "bokira" ma'nolarida qo'llangan . Hozir ham Xorazm shevalarida shaddod qizlarga nisbatan anakuta sifatlashi ishlatilib, u Anaxita so'ziga tarixan aloqadordir .

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, sayyora nomlari adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan inson tafakkurining koinotga oid estetik va falsafiy izlanishlarini ifodalovchi muhim poetik hodisa hisoblanadi. Sayyoralar obrazining badiiy asarlardagi talqini milliy adabiyotda poetik tafakkurning ko'lamini kengaytiradi, matnning semantik qatlamlarini boyitadi va asarning falsafiy mohiyatini yanada chuqurlashtiradi. Shu bois kosmonimlar ko'pincha inson ruhiyatining, muhabbat va sadoqatning, ilohiy nurning yoki taqdirning ramzi sifatida talqin qilinadi. Ularning poetik funksiyasi asar estetik strukturasida muhim o'rin tutib, adabiy timsollar tizimining ichki uyg'unligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бафоев Н. Навоий асарлари лексикаси.-Тошкент: Фан,1983. –Б.152.
2. Бегматов Е., Дўсимов З., Нафасов Т., Қораев С. Ўзбек номшунослиги: тадқиқ ё'налишлари ва усуллари. Хива. Номсуносликка бағишланган илмий-амалий анжуман тезислари.-Хива, 1991.-Н/1.-Б.12.
3. Алишер Навоий.Фавойид ул-кибар. –Тошкент:Фан, 1960.-Б.116.
4. А.Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати.4 жилдли. –Тошкент:Фан, 1983.
5. Авесто. Тарухий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. –Тошкент: Шарқ, 2001.-Б.344.
6. Примов А. Ўзбек тили космонимларининг лисоний хусусиятлари: Филол.фанлари номз...дисс. автореф.-Тошкент, 2009.-Б.58.